

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 115 (1714), 2026-yil 9-iyun, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



OLIYGOHLAR BITIRUVCHILARINING BANDLIGINI TA‘MINLASH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining bandligini ta‘minlash yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

2026-yilda respublika oliygohlarini 320 ming nafar talaba bitirishi kutilmoqda.

So‘nggi yillarda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish ko‘lami sezilarli kengaygani tufayli mehnat bozoriga kirib kelayotgan bitiruvchilar soni ham ortib bormoqda.

Ularning bandligini ta‘minlashda bitiruvchilar bilan individual ishlash, ularni iqtisodiyot tarmoqlaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga yo‘naltirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, oliygohlarda karyera markazlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruvchilarning tadbirkorlik loyihalarini imtiyozli shartlarda moliyalashtirish bo‘yicha “Kelajakka qadam” dasturi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, uning doirasida 2025-yilda 6 mingdan ortiq loyihalar uchun 378 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan. Buning natijasida 8 ming nafarga yaqin bitiruvchilarning bandligi ta‘minlandi.

Taqdimotda 2026-yilda 8 mingdan ziyod loyihalarni moliyalashtirish uchun 500 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirish, 10 mingga yaqin yoshlarni band qilish rejalashtirilgani ma‘lum qilindi.

Mazkur dasturni unda ishtirok etuvchi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha moliyaviy imkoniyatlar taqdim etish orqali yanada kengaytirish taklif etildi.

Shuningdek, “TalabaExpo-2026” kasb ko‘rgazmalarini ish beruvchi tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlarini faol jalb etgan holda

respublikaning boshqa hududlarida ham samarali tashkil etish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Bitiruvchilar bandligini ta‘minlashda vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar, yirik xo‘jalik birlashmalari mas‘uliyatini oshirish muhimligi qayd etildi.

Barcha jarayonlar bandlikka ko‘maklashuvchi “career.edu.uz” platformasi orqali monitoring qilinib, bandlikni ta‘minlash masalasi mahalliy hokimliklar darajasigacha tushiriladi. Natijada bitiruvchilar bilan ishlashning vertikal tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Shu bilan birga, talabalarni ish bilan band qilishda oliygoh darajasida ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yangi mexanizmlar taklif qilindi.

Jumladan, barcha oliygohlarda karyera markazlari faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yilib, natijadorligiga qarab rag‘batlantirib boriladi. Markazlar faoliyati “Bitiruvchi sifati indeksi” orqali baholanib, eng yuqori natija ko‘rsatgan 20 ta oliygohning karyera markazlariga 500 million so‘mdan ajratiladi.

Joriy yilda oliygoh miqyosida 360 ta, fakultetlar miqyosida 750 ta mehnat yarmakalari hamda har bir yo‘nalish kesimida mingdan ortiq ish beruvchilar bilan uchrashuvlar (vorkshoplar) tashkil etildi.

Shuningdek, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni biznes yuritish uchun mavjud imkoniyatlar bilan tanishtirish maqsadida

barcha oliygohlarda “Tadbirkorlik asoslari” fanini o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi.

Shu bilan birga, oliygohlarda talabalarning startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, tashkil etiladigan spin-off korxonalariga talabalarni jalb etish, kafedralarning tegishli tarmoq korxonalarida filiallarini ochish, bitiruv loyihalarini himoyasini ish beruvchi korxonalarda o‘tkazishni kengaytirish chora-tadbirlari belgilandi.

Aniq buyurtma, moslashuvchan dasturlar asosida kadrlar tayyorlashga qaratilgan maqsadli dual ta‘lim shaklini ham yo‘lga qo‘yish tashabbusi bildirildi.

Bunda talabgorlarni dasturga qabul qilish, to‘lov-kontrakt miqdorini belgilash ish beruvchi hamda oliygoh o‘rtasida o‘zaro kelishuvga ko‘ra amalga oshirilib, buyurtmachi talaba o‘qishni tamomlaganidan so‘ng uni ish bilan ta‘minlashga kafolat beradi.

Taklif qilingan chora-tadbirlar ijrosini sifati tashkil etishda oliygohlar rahbariyatining mas‘uliyatini oshirish, ularning “KPI” ko‘rsatkichlarida bitiruvchi bandligining ta‘minlanganini asosiy mezon sifatida belgilash zarurligi qayd etildi.

Prezidentimiz mutasaddilarga bitiruvchilar bilan ishlashni samarali tashkil etish, bildirilgan tashabbuslarni puxta ishlab chiqish, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishda barcha imkoniyatlarni safarbar etish yuzasidan topshiriqlar berdi.

O‘zA

SUDLARDA KOMPLAYENS NAZORATI SAMARADORLIGI YANADA OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev sudlarda komplayens nazorat tizimi samaradorligini oshirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish, odil sudlovga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, sudlar faoliyatida ochiqlik va qonuniyligni ta‘minlash bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sud tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va xodimlarning kasbiy mas‘uliyatini yuksaltirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu borada nafaqat sudyalarning, balki sud raisiga bo‘ysunib, hududiy sudlarda ham faoliyat olib boruvchi komplayens inspektorlaridan iborat bo‘ladi.

Komplayens xizmati korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va oldini olish, ularning sabablarini bartaraf etish, xodimlar tomonidan qonunchilik va kasb etikasi talablariga rioya etilishini monitoring qilish bilan shug‘ullanadi.

Mazkur xizmat to‘g‘ridan-to‘g‘ri Oliy sud raisiga bo‘ysunib, hududiy sudlarda ham faoliyat olib boruvchi komplayens inspektorlaridan iborat bo‘ladi.

Komplayens xizmati korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va oldini olish, ularning sabablarini bartaraf etish, xodimlar tomonidan qonunchilik va kasb etikasi talablariga rioya etilishini monitoring qilish bilan shug‘ullanadi.

Davomi 2-beta

MIS SANOATIDAGI YIRIK LOYIHALARNING BORISHI KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga mis sanoatida amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalarining borishi va kelgusidagi rejalar yuzasidan axborot berildi.

Mis sanoat, energetika, elektrotexnika, raqamli iqtisodiyot va “yashil” taraqqiyot uchun strategik xomashyoga aylangan. Shu bois, mamlakatimizda geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, mavjud zaxiralarni samarali o‘zlashtirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Joriy yil mart oyida Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasining birinchi navbati ishga tushirilgan edi. “Yoshlik-1” konini o‘zlashtirish dasturi doirasida 196 gektar maydonda barpo etilayotgan ushbu loyihaning qiymati 2,7 milliard dollarni tashkil etadi. Fabrika to‘liq quvvatga chiqqanidan so‘ng yiliga 60 million tonna ma‘danni qayta ishlash va 900 ming

tonnaga yaqin mis konsentratini ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Taqdimotda fabrikaning keyingi navbatlarini ishga tushirish, texnologik jarayonlarni barqaror yo‘lga qo‘yish va rejalashtirilgan quvvatlarga o‘z vaqtida chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma‘lumot berildi.

Davomi 2-beta

HAVO SARHADLARINI HIMOYA QILISHNING ZAMONAVIY TIZIMI JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev mudofaa sohasidagi ayrim masalalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni rahbarligida mamlakatimiz mudofaa tizimi rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Xususan, havo sarhadlarini mustahkamlash, chegaralar daxlsizligini ishonchli himoya qilish maqsadida Havo Hujumidan Mudofaa qo‘shinlari va Harbiy havo kuchlari izchil isloh qilinmoqda.

Ishloklar natijasida qo‘shinlar zamonaviy aviatsiya texnikalari, havo hujumidan mudofaa tizimlari va uchuvchisiz uchish apparatlari bilan ta‘minlanmoqda. Amaliy parvoz mashg‘ulotlari ko‘lami bir necha barobar

oshirilib, aviatsiya bo‘linmalarining jangovar shaylari mustahkamlanmoqda.

Taqdimotda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, vatanparvar va professional milliy kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e‘tibor qarlatildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Qarshi shahrida joylashgan Harbiy aviatsiya institutining o‘quv-moddiy bazasi xalqaro ta‘lim standartlari asosida jihozlangan edi.

Davomi 2-beta

QUYIDAN – ILM CHO‘QQISIGA: INNOVATSIYANING YANGI ZANJIRI

YOXUD GRANT, OLIM, XONADON, FERMER VA BOZORNI BIRLASHTIRADIGAN TIZIM HAQIDA

Ilm-fan haqida gapirsak, ko‘pincha ko‘z oldimizga laboratoriya, tajriba stansiyasi, dissertatsiya, maqola, patent yoki hisobotlar keladi. Bu, albatta, ilmnning muhim qismi. Lekin bugun zamon boshqa savolni ko‘ymoqda: shu ilm xalq hayotiga kirdimi, fermer dalasiga yetdimi, xonadon daromadiga aylandimi? Bozorda mahsulot yoki xizmat bo‘lib ishladimi? Kambag‘allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi va hudud taraqqiyotiga xizmat qildimi? Agar ilm faqat qog‘ozda qolsa, u yaxshi fikr bo‘lishi mumkin, ammo hali to‘liq kuch emas. Ilm haqiqiy kuchga aylanishi uchun u tuproqni ko‘rish, suvni his qilishi, fermer qo‘lidan o‘tishi, xonadon daromadi va bozor ehtiyoji bilan bog‘lanishi kerak. Oddiy qilib aytganda, ilm laboratoriyada tug‘iladi, lekin xalq hayotiga kirganda yashay boshlaydi.

Bu faqat O‘zbekiston muammosi emas!

Bugun dunyoda ham shu savol dolzarb. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar ilm-fanga katta mablag‘ sarflaydi, universitet va ilmiy markazlar minglab maqola, patent va prototiplar yaratadi. Ammo ularning hammasi ham texnologiyaga, ish o‘rniga, daromad yoki jamiyatda seziladigan foydaga aylanvermaydi. Shuning uchun ilmiy qanday qilib hayotga tezoq va ishonchliroq olib kirish mumkin degan savol ko‘p mamlakatlarda uchun asosiy siyosiy va ilmiy masalaga aylangan.

Xalqaro tahlillarda bir muhim xulosa bor: ilmiy natijani tijoratlashtirish faqat patent, litsenziya yoki startap degani emas. Hamkorlikdagi tadqiqot, kontrakt tadqiqot, xo‘jalik shartnomalari, akademik maslahat, proof-of-concept, ya‘ni g‘oyaning amalda ishlashini isbotlash uchun beriladigan mablag‘, olim va sanoat o‘rtasidagi harakatchan aloqalar, ilmiy infratuzilmadan birgalikda foydalanish va



ochiq innovatsiya kabi yo‘nalishlar ham muhim. Chunki patentning o‘zi yetarli emas, unga ishonadigan, uni ishlatadigan va bozorga olib chiqadigan muhit kerak.

Qator davlatlar tajribasi bir-biriga o‘xshash muammolarni ko‘rsatadi: intellektual mulk tizimi zaif bo‘lsa, proof-of-concept uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, texnologiya transferi ofislari kuchsiz bo‘lsa, olimlar faqat maqola bilan baholansa, xususiy sektor va real foydalanuvchi boshidanoq jalb qilinmasa, ishlama laboratoriyadan bozorga o‘ta olmaydi. Demak, bu maqolada biz faqat o‘z muammomiz haqida emas, butun dunyo izlayotgan yechim haqida ham gapiryapmiz.

Amalda ilmnning yo‘li ko‘pincha mana bunday kechadi: g‘oya olimda yoki laboratoriyada paydo bo‘ladi, kichik tajriba o‘tkaziladi, keyin tajriba stansiyasida sinab ko‘riladi, hisobot yoziladi, maqola chiqadi, patent olinadi. Shundan keyingina natijani fermerga, korxonaga yoki bozorga yetkazish masalasi boshlanadi.

Ammo ko‘p hollarda aynan shu yerda katta muammo paydo bo‘ladi. Ishlanma tayyor bo‘lgan paytda bozor o‘zgargan, iqlim o‘zgargan, asosiy foydalanuvchi — fermerning ehtiyoji o‘zgargan bo‘ladi. Ba‘zan olim tomonidan taklif qilinayotgan yangi ilmiy mahsulot o‘xshash, ko‘pincha xorijiy takliflarga nisbatan qimmat bo‘ladi. Eng qiyini, tarmoqda yangi mahsulotni olimdan boshqa tashunadigan va samarali ishlatadigan mutaxassisning o‘zi bo‘lmasligi

mumkin. Fermer esa tabiiy savol beradi: “Bu mening yerimda ishlaydimi? Mening suvim, tuprog‘im, mehnat sharoitim bunga mosmi? Tavakkal qilsam, foyda ko‘ramanmi?”

Ko‘pincha bu savollarga aniq javob bo‘lmaydi. Chunki texnologiya haqiqiy fermer maydonida emas, cheklangan tajriba sharoitida sinalgan bo‘ladi. Natijada yaxshi ishlanmalar mana tokchada turaveradi: patent bor, lekin xaridor yo‘q, maqola bor, lekin fermer ishonmaydi, hisobot bor, lekin bozorga chiqmaydi. Bir necha tarmoqda rahbarlikdan olgan eng muhim sabog‘im shu: ilmnning oxirgi manzili boshidanoq belgilanmagan bo‘lsa, keyin vaqt o‘tishi bilan uni hayotga olib kirish qiyinlashib ketaveradi. Demak, yechim nostonand — astari ag‘darilgan, ya‘ni teskaridan boshlangan yondashuvni talab qiladi.

Qanday yo‘l taklif etiladi?

Ko‘p yillar davomida an’anaviy yondashuv ushbu zanjirda ishlab keldi: g‘oya — ilmiy grant — laboratoriya tadqiqotlari — natijalar tahlili — maqola va hisobotlar — patent yoki prototip — kichik ishlab chiqarish — iste‘molchi yoki tarmoqlarga tijoriy taklif — tijoratlashtirish.

Bu yo‘lning ilmiy ahamiyati bor, albatta. Ammo amaliy qishloq xo‘jaligida u ko‘pincha uzun, sekin va xavfli bo‘lib qoladi. Chunki fermer, xonadon, klaster, korxonaga yoki

bozorning haqiqiy ehtiyoji jarayonning boshida emas, aksar hollarda oxirida hisobga olinadi. Natijada ayrim ishlanmalar yaxshi maqola, hisobot yoki protenga aylanadi, lekin fermer dalasiga, xonadon daromadiga, bozor mahsulotiga va iqtisodiy samaraga yetib borolmaydi.

Endi ilm yo‘lini teskaridan boshlash vaqti keldi. Ya‘ni olim o‘z ishini faqat “menda qanday g‘oya bor?” degan savoldan emas, balki “qaysi fermer, qaysi xonadon, qaysi hokimlik, qaysi klaster, qaysi kooperativ, qaysi korxonaga yoki qaysi mahalla muammosini hal qila olaman?” degan savoldan boshlashi kerak.

Yangi modelda zanjir boshqacha — quyidan yuqoriga qarab quriladi: hozirgi hayotiy muammo — fermer maydoni yoki xonadon platformasini ilmiy maydon sifatida tanlash — sharoitlar va mavjud inson kapitalini ilmiy diagnostika qilish — yechim g‘oyasi — grant jalb qilish — laboratoriya va dala tadqiqotini bir vaqtda olib borish — bepul yoki imtiyozli texnologiya paketi — real sharoitda sinov va mahalliy mutaxassis tayyorlash — fermer va xonadon daromadi — atrofda xonadon va fermerlarga kengaytirib borish, ya‘ni dastlabki tijoratlashtirish — ilmiy ma‘lumot — maqola, patent va joriy qilingan maydon taqdimoti — klaster, kooperativ, kompaniya, startap yoki spin-off orqali kengaytirish — keng miqyosda tijoratlashtirish.

Davomi 3-beta



PMEP'26
ПЕТЕРБУРГСКИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
ФОРУМ

Jizzax viloyati Forish tumanida integratsiyalashgan atom elektr stansiyasining birinchi energoblokiga tamal toshi qo‘yilishi yangi texnologik bosqich debochasi, energetik mustaqillik, sanoat o‘lishi va ekologik xavfsizlik yangi davrining ramziy ifodasi bo‘ldi. Boshqacha aytganda, O‘zbekiston o‘z suverenitetini mustahkamlagan holda innovatsion rivojlanish uchun yangi ufqlarni ochib, jahon energetikasining ilg‘or marralarini dadil zabt etayotganining amaliy isboti.

ENERGETIK MUSTAQILLIK TAYANCHI VA FAROVONLIK ASOSI

Forishda oddiy elektr stansiyasi qurilmayapti, balki O‘zbekistonning kelajak avlodlari uchun farovon, texnologiya jihatdan yetakchi va barqaror yangi davrga zamin yaratilmoqda. Shu bois, ushbu tarixiy voqea O‘zbekistondagi qurilish maydonini Sankt-Peterburg shahri bilan bog‘lagan teleko‘prik

formatida taqdim etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Rossiya Prezidenti Vladimir Putin bilan birgalikda uning poydevoriga “birinchi beton”ning ramziy quyilishini kuzatib bordi.

Davomi 2-beta



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

SOLIQ REJIMIGA OʻTISHNING CHEGARASI

KICHIK BIZNES UCHUN 1 MILLIARD SOʻMDAN 5 MILLIARD SOʻMGACHA OSHIRILDI

Ochigʻi, bu gal kutganimizdan ham koʻproq imtiyozlar berildi. Yengilliklarning aksariyati kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan. Soliq toʻlovining ikki baravar qisqargani, foyda soligʻining olib tashlangani haqida toʻlqinlanib gapirayotganimiz boisi shunda.

QQS bilan birga hisobotlar ham qisqarmoqda



Sanjar MAQSUDOV,
Oʻzbekiston restoranlar
gildiyasi rahbari

Aynan mana shu masalaga yechim berilgani koʻplab kichik va oʻrta biznes egalari qovontirib yubordi. Prezidentimizning farmoni bilan 1 milliard soʻmlik chegara BHMning 12 ming baravari, yaʼni naqd 5 milliard soʻmgacha oshirildi. Bu — daromadi 5 milliard soʻmgacha boʻlgan tadbirkorlar avvalgidek faqat aylanmadan soliq toʻlaydi degani. Endi savdo aylanmasini yashirish, ataylab faoliyatni kengaytirishga osonroq boʻldi.

Savdo aylanmasi 5 milliard soʻmdan oshib, soliq rejimiga oʻtdigan tadbirkorlar uchun ham katta imtiyoz berildi — qoʻshimcha qiymat soligʻi 12 foizdan 6 foizga tushirildi. Koʻpchilik 12 foizli soliq toʻlovi haqida yaxshi biladi. Ushbu soliq turi har bir xodimning oylik maoshidan hisoblanadi. Bu juda katta xarajat degani. Ayniqsa, biz faoliyat yuritadigan umumiy ovqatlanish sohasida daromadning yarmidan koʻpi oylik maoshga sarflanadi. Chunki ishchi kuchini koʻp va ularning har biriga yaxshigina ish haqi toʻlanadi. Xususan, korxonamizda 300 dan ortiq kishi ish bilan taʼminlangan. Qolaversa, QQS uchun hujjatlarini tayyorlashning oʻzi ham anchagina tashvihi edi. Har bir tovarning hujjati, fakturasini toʻgʻri, hisobga olish azob edi. Davlat endi yangi, soddalashtirilgan 6 foizli QQS tizimini taklif qilyapti. QQS stavkasining 2 baravar qisqartirilayotgani hisobotlarni ancha osonlashtiradi.

Tadbirkorlar hamma narsani roʻyxatdan oʻtkazib, ochiq va shaffof ishlagan taqdirda oʻz-oʻzidan daromadidan 15 foiz foyda soligʻi toʻladi. Ochiq aytilish kerak, koʻpchilik ana shu soliqdan qochib, baʼzi raqamlarni yashiradigan holatlar ham uchraydi. Albatta, shaffof ishlagan biznes egalari hozir koʻplab imtiyozlardan foydalanadi. Shunga qaramay, ishbiarmon uchun 15 foizli foyda soligʻi ogʻirlik qiladi. Endi xizmat koʻrsatish sohasidagi kichik tadbirkorlar uchun ana shu foyda soligʻi 0 foizga tushirildi. Bu aytilishga oson, ammo biznes egasi uchun yaxshigina qulaylik. Shu bois, ayni jihat koʻpchilikni qovontirdi. Bu ishbiarmonning daromadi oʻziga qoladi, faoliyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi degani. Ushbu yengillik biznes egalari yanada ochiq, shaffof ishlagan ham undaydi.

Xodimlarni rasmiylashtirish, oylik maoshini oshkora koʻrsatishda ochiqlik boʻladi. Tadbirkor xodimlarini yashirishga urinmaydi, har birini rasman roʻyxatdan oʻtkazadi. Bu ortiqcha qogʻozbozlik ham talab qilmaydi. Endi jarayon toʻliq elektronlashtirildi, mobil ilova orqali rasmiylashtirildi. Bugungacha har bir xodimning hujjati yigʻilib, roʻyxatdan oʻtkazilib, rosa ovoragarchilik talab qilardi.

Tekshiruvlarning qisqartirilayotgani alohida masala. Ochigʻi, asossiz tekshiruvlar ishlab turgan tadbirkorning xayolini chalgʻitadigan asosiy muammolardan edi. Kichik xato yoki kamchilik aniqlansa ham kunlab sarson boʻlardik. Yangi tizim ancha qulay — xatolik qiymati 500 million soʻmdan oshmagan hollarda soliq idoralardan muammoni bartaraf etish boʻyicha xat keladi. Aniqlik, xaf summasi 500 million soʻmgacha boʻlsa, soliq auditi, 100 million soʻmgacha boʻlsa, sayyor tekshiruv umuman oʻtkazilmaydi. Korxonaga soliq organlari xodimlari kelib, kunlab tekshirmaydi. Tadbirkor kamchiliklarini mustaqil tuzatish imkoni berilyapti.

Umuman, yangiliklar, imtiyozlar koʻp, tadbirkorlar bular haqida toʻlib-toshib muhokama qilayotganicha bor. Ayniqsa, farmonda nazarda tutilgan yangiliklar umumiy ovqatlanish va xizmat koʻrsatish sohalari uchun katta yordam boʻldi. Yurtimizda turizm tobora rivojlanib, sayohat oqimi oshayotgan sharoitda ayni sohalar qulaylik berilishi ularni yanada rivojlantirishga yoʻl ochadi. Qolaversa, kichik biznesda ochiq va shaffof ishlagan uchun mexanizm yaratilyapti. Bu bozordagi raqobatni ham oshiradi.



Kun mavzusi

Shu kunlarda tadbirkorlar, ayniqsa, kichik va oʻrta biznes egalari Prezidentimizning yangi farmoni bilan ishbiarmon doira vakillariga berilayotgan bir qancha yengillik hamda imtiyozlar haqida gapiryapti. Chunki mana shu farmon bilan yillar davomida tadbirkorlar tashvihi boʻlib, uyqusini qochirgan real muammolar yechildi. Qolaversa, berilayotgan imtiyozlar koʻlami ham kichik emas. Bu mamlakatimizda kichik va oʻrta biznesni yanada rivojlantirishning yangi davrini boshlab berayotgan muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Avvalo, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat koʻrsatish sohalari uchun QQS toʻlashning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Aynan mana shu yangi tartib bir qancha yengilliklarni nazarda tutadi. Jumladan, amaldagi 12 foizli qoʻshimcha qiymat soligʻining 6 foizga tushirilishi, foyda soligʻi stavkasining esa 0 foiz etib belgilanishi ahamiyatini tadbirkorlar juda yaxshi biladi.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM OʻQISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



Eng katta yengillik 2026-yil 1-iyundan boshlab kichik biznes uchun umumiy soliq rejimiga oʻtishdagi chegaraviy miqdorning 1 milliard soʻmdan 5 milliard soʻmga oshirilishi boʻldi. Chunki 1 milliard soʻmlik chegara kichik biznesning eng katta muammolaridan, soliq toʻlovlaridan qochishning bosh sabablaridan edi. Savdo 1 milliard soʻmdan oshdirmoq, tamom, kichik tadbirkor avtomatik ravishda umumbelgilangan soliq tizimiga oʻtardi. Bu endi korxonaga aylanmadan soliq emas, balki 12 foizli QQS hamda yil yakunidagi sof foydasidan 15 foiz foyda soligʻi toʻlaydi degani. Qolaversa, oʻz nomidagi bino, yer va ishchilarining oyligidan tegishli soliqni toʻlaydi. Bu juda aniq va hujjatlariga asoslangan boʻlishi kerakligi bois, kichik

korxonalarining ham malakali buxgalter-konsultantni ishga olishi, doimiy hisob-kitob yuritishiga toʻgʻri kelgan. Bu ham kichik biznes egalari qoʻshimcha yuklama edi.

Tadbirkorlarning ayrimlari QQS toʻloviga oʻtgach, xarajati oshishidan qochib, 1 milliardlik dovonga yetmaslikka intildik. Ular ataylab biznesini kattalashtirmay yurganiga ham guvoh boʻlganmiz. Chunki daromadi oshgani sari koʻproq soliq toʻlashga toʻgʻri keladi. Vaholanki, hozir savdo aylanmasini 1 milliard soʻmga yetkazish u qadar qiyin boʻlmay qolgan. Toʻgʻri, har kim uchun ham daromadi oshgani yaxshi, ammo QQSga oʻtish tadbirkor zimmasiga ortiqcha xarajat va qogʻozbozlik yuklaydi.

Imtiyozlar muvaffaqiyat sari yetaklaydi

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, biznes vakillari uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish va ularning zimmasidagi maʼmuriy yukni sezilarli darajada yengillashtirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmogʻda. Jumladan, yaqinda Prezidentimizning “Kichik biznes subyektlarining oʻsishi uchun yanada qulay iqtisodiy va maʼmuriy shart-sharoitlar yaratish toʻgʻrisida”gi farmoni eʼlon qilindi.



Dilfuza RAHMONOVA,
xususiy bandlik
agentligi rahbari

oʻzidayoq yakuniy isteʼmolga chiqarilgan deb hisoblanadi.

Shuningdek, umumiy ovqatlanish shoxobchalari uchun ayrim xodimlarni maxsus mobil ilova orqali shu kunning oʻzida muayyan muddatga soddalashtirilgan tartibda ishga qabul qilish va maosh toʻlash tizimi joriy etilmogʻda. Ular toʻlagan QQS summasining naqd 40 foizini davlat qaytarib beradi.

Bunday imkoniyatlar yangi loyihalarni amalga oshirish uchun keng yoʻl ochadi. Tarmoqlar yanada kengayib, qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratiladi. Bu esa aholining daromadini oshirish bilan birga ishsizlikka barham berish imkonidir.



Yillik aylanmasi 1 milliard soʻmgacha boʻlgan tadbirkorlar aylanmasidan 1 foiz soliq toʻladi. Endilikda bu miqdor 5 milliard soʻm etib belgilandi.

Prezidentimizning 2026-yil 26-maydagi “Kichik biznes subyektlarining oʻsishi uchun yanada qulay iqtisodiy va maʼmuriy shart-sharoitlarni yaratish toʻgʻrisida”gi farmoni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashda yangi imkoniyat eshiklarini ochdi.

Islohotlar natijasida TADBIRKOR YELKASIGA OFTOB TEGDI



Shokirjon AHMEDOV,
Rishton tumanidagi
“Mingboshi keramik” oilaviy
korxonasi rahbari

albatta. Oʻtgan yili umumiy qiymati 10 milliard soʻmdan ortiq sopol va chinni buyumlar ishlab chiqarildi. 200 dan ortiq yosh uchun doimiy ish oʻrinlari ochildi. 3 mingdan ortiq kasanachimiz bor. Mahsulotlarimiz ichki bozordan tashqari yaqin qoʻshni mamlakatlar — Rossiya, Yevropa bozorlariga ham kirib bordi. Milliy hunarmandlik yoʻnalishidagi koʻplab xalqaro koʻrgazmalarda mahsulotlarimiz bilan ishtirok etyapmiz. Shu kunga qadar okeanortiga, Rossiya, Qozogʻiston, Tojikiston va Qirgʻizistonga umumiy qiymati 5 million dollardan ortiq mahsulotlar eksportini amalga oshirdik.

Bizga nafaqat tadbirkor, balki davlat va jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻshayotgan, aholi turmush farovonligini oshirish, bandligini taʼminlash, hududlar obodligi yoʻlida samarali xizmat qilayotgan ishlohtchi sifatida qadrlanib, izzat — hurmat koʻrsatilyapti. Har yili tadbirkorlar bilan toʻgʻridan toʻgʻri muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat bilan ishbiarmonlar oʻrtasida muloqot, hamjihatlik rishtalari bogʻlandi. Natijada koʻplab yangi ishlab chiqarish korxonalari qurildi, investorlar oqimi kengaydi, investitsiyalar miqdori oshdi. Soliq maʼmurchiligi, bank tizimidagi

islohotlar natijasida tadbirkor yelkasiga oftoab tegdi. Soliq va bank hisobotlari elektron tizimga oʻtkazildi. Endi oldi-soldi jarayonini bajarish uchun bank yoki soliq idoralarga borishga hojat yoʻq.

Kichik va oʻrta biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashni kengaytirish hamda moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishga qaratilgan eʼtibor kuchayotgani ayni muddao. Endi bank kreditlari olish tizimi yanada soddalashtirildi. Kredit olmoqchi boʻlgan tadbirkor bir necha bank taklifini bir joyda koʻrish, solishtirish va oʻziga maqbul shartlarni tanlash imkoniyatiga ega. Joylarda raqamli moliyaviy platforma ishga tushirilib, “Elektron hukumat” tizimi raqamli maʼlumotlar bazalari bilan integratsiya qilindi. Bu kichik va oʻrta biznes subyektlariga oid maʼlumotlarni avtomatik ravishda olib, banklarga taqdim etish imkoniyatini beradi. Shuningdek, kredit berish jarayonida hujjat yigʻish, ortiqcha vaqt sarflash va inson omilini kamaytiradi.

Muhim yangiliklardan biri — kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash boʻyicha oʻshimcha yengilliklar. Avvallari mikroreditdan foydalanган va ijobiy kredit tarixiga ega tadbirkorlar uchun mikroqarzdov garovsiz qismi 100 million soʻm boʻlgan, endi esa bu miqdor 200 million soʻmgacha oshirildi. Bu kichik biznes faoliyatini koʻlamlarni kengaytirish, xomashyo xarid qilish, sotish, yangi ish oʻrinlari yaratish jarayonida oʻziga xos imkoniyatlar beradi. Qolaversa, kredit yoki lizing miqdoridan qatʼi nazar, uning 5 milliard soʻmgacha boʻlgan qismi uchun foiz xarajatlari kompensatsiya qilinadi.

Yillik aylanmasi 1 milliard soʻmgacha boʻlgan tadbirkorlar aylanmasidan 1 foiz soliq toʻladi. Endilikda bu miqdor 5 milliard soʻm etib belgilandi. Avvalgi tartibga koʻra belgilangan 1 milliard soʻmlik chegara biznes oʻsishini cheklab qoʻyayotgan edi. Ayrim korxonalar oʻz biznesini erkin va keng miqdordagi rivojlantirish oʻrniga soliq yukidan qochish maqsadida oʻz faoliyatini sunʼiy ravishda bir necha mayda firmaga boʻlshga majbur boʻlayotgan edi. Endi esa shu sunʼiy toʻsiqlar butunlay parchalab tashlandi. Yangi tartibga koʻra, yillik savdo aylanmasi 5 milliard soʻmga yetmagan korxonalar ortiqcha soliq yuki va murakkab hisobotlardan xalos boʻladi.

Bu inqilobiy yangilikdan, birinchi navbatda, yurtimizda faoliyat yuritayotgan minglab oilaviy korxonalar, kafe va restoranlar, mahalliy doʻkonlar, maʼmuriy xizmat koʻrsatish shoxobchalari hamda oʻz halol mehnati bilan iqtisodiyotimiz poydevorini mustahkamlayotgan oddiy fuqarolarimiz beqiyos darajada manfaat koʻradi.

Shoir bitganidek, “ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyo”. Bundan yetti asr muqaddam esa diyorimizdan “zabtga olib keng Osiyoni, mag‘rur, davongir bir zot chiqdi”ki, uning mo‘tabar nomi, ezgu amallari-yu adolati zamonlar silsilasi, sarhadlaridan mardonavor o‘tib, to bugungacha avlodlar uchun faxr va ilhom manbai bo‘lib kelmoqda.

Amir Temur! Buyuk ajdodimizning bemisil zafarlari, el-ulus farovonligi yo‘lidagi ulkan ishlari, bugun ham hayrat bilan boqadiganimiz yodgorliklar — mahobatli binolaru bunyod etilgan bog‘-rog‘lar haqida qancha gapirsak, iftixor qilsak kam. Ayni vaqtda Sohibqiron meros ma‘naviy xazina, adolat qomusi — “Temur tuzuklari” ham xalqimiz va vatanimiz uchun yuqoridagi sanalgan barcha ishlardan hech kam bo‘lmagan ahamiyat kasb etadi.



“Temur tuzuklari” – milliy davlatchiligimiz dasturi

JAHON AHLINI HAMON HAYRATGA SOLIB KELAYOTGAN ASARNING SIRI NIMADA?



Biz milliy davlatchiligimiz dasturi deya e’tirof etilayotgan asarning asl mazmun-mohiyati hamda tarixiy ahamiyati haqida qiziqib soha mutaxassisiga yuzlandik. Savollariimizga javob berar ekan, “Temur tuzuklari”ning milliy davlatchiligimizda tutgan o‘mi beqiyos, — deydi subhatdoshimiz, **Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori Xurshid FAYZIYEV.** — U zotning qomusiy asarida bayon etilgan davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat va bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san‘at va me‘morlikka oid qarashlar, insonni ulug‘laydigan ezgu ishlar, jiddiy va xolisona, adolati, ishonchli kengash va tadbirlar hamda ular qonun doirasida ado etilgani, bajarilishi aniq yo‘lga qo‘yilgani haqidagi hikoyalari, dinu diyonat va ma‘naviy barkamollikni ko‘zlab yuritilgan siyosat, el manfaatini o‘ylab ish tutish bilan bog‘liq noyob fazilatlar alohida e’tiborga loyiq. Eng muhimi, mazkur asar tafayil temuriylar sulolasi dunyoda Ikkinchi Uyg‘onish davrini yuzaga keltirdi. Ular qoldirgan ulkan ilmiy va madaniy

690 yilligi munosabati bilan “Temur tuzuklari” Prezidentimizning asarga yozgan so‘zboshisi bilan uch tilda nashr etildi. O‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etilgan mazkur yangi nashr Sohibqiron ilgari surgan davlat va jamiyat boshqaruvidagi tamoyillarni chuqur o‘rganish, ularni dunyo hamjamiyati e’tiboriga yetkazish, shuningdek, uni targ‘ib va tashviq qilishda alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Sohibqiron Amir Temur jahon hukmdorlari orasida davlatchilik tamoyillarining o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqqan shaxs sifatida ma‘lum va mashhurdir. U shohona taxtda tug‘ilmadi. Mo‘g‘ullarning jabr-zulmi tafayil turli bekliklarga bo‘lingan tarqoq jamiyatda tavallud topdi va voyaga yetgach, xalqning og‘ir sharoitda kun kechirayotganini ko‘rib, javonmard bek sifatida o‘zini ulardan qarzdor deb bildi. Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda Movarounnahr mo‘g‘ullar istibdodi ostida ingramoqda edi. Darhaqiqat, Chinghixon va Botuxon bosib o‘tgan yerlarning kuli ko‘kka sovrulgan, shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari buzib tashlangan yoki ishgah yaroqsiz holga keltirilgan edi. Amir Temur balog‘atga yetgach, vatanni mo‘g‘ul istibdodidan xalos qilish yo‘llarini qidirib boshlaydi. 1357-yillardan boshlab qariyb 13-14 yil davomida yurt ozodligi uchun qattiq va keskin kurash olib bordi.

Movarounnahrda hukm surayotgan og‘ir siyosiy, iqtisodiy sharoitda mo‘g‘ul istibdodiga qarshi ozodlik bayrog‘ini baland ko‘tarib maydonga chiqqan va xalqning asriy ezgu niyati — mustaqillikni qo‘lga kiritgan yetuk tarixiy shaxs Amir Temurdir.



bo‘ladi. U 1359-yilda katta qo‘shin bilan Movarounnahrda bostirib kiradi. Kesh viloyati hukmdori Hoji Barlos Tug‘luq Temurxonaga bardosh bera olmasligini fahmlab, o‘z yaqinlari bilan Xurosonga chekinadi. Tabiiyki, amakisi Hoji Barlos bilan birga 24 yoshli Amir Temur ham safar taraddudida edi. Ammo javonmardlik ruhida tarbiyalangan Amir Temurda oriyat, hamiyat kuchli bo‘lib, vatani, xalqi boshiga og‘ir kunlar soya solib kelayotgan bir paytda yurtini dushman irodasiga tashlab, o‘zi chetda tomoshabin bo‘lib turolmasdi. U qat‘iy fikrga kelib, “Siz boravering, qiyin kunda men el ichida

ishonchli strategiya va amalda sinalgan taktika bo‘lib, uning nufuzi bugun ham kundun kunga oshib bormoqda. Shu bois, mazkur kitob siz aytgan jihatlarning barchasini o‘zida mujassam etadi.

— **Kitob qaysi tilda yozilgan?**

— Bu muhim savol. “Temur tuzuklari” asari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan bo‘lib, mutaxassislar tomonidan o‘rganib kelinmoqda.

“Temur tuzuklari” asari ikki kitobdan iborat bo‘lib, birinchi kitobda Sohibqironning tarjimai holi, o‘sha davr ijtimoiy, siyosiy voqealardagi o‘rni va roli, Movarounnahrda markazlashgan hokimiyat qurish yo‘lidagi faoliyati, shuningdek, ulkan saltanatni barpo etish borasida yuritgan siyosati, harbiy yurishlari, chora-tadbirlari, davlat asoslarini mustahkamlash yo‘lida turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan munosabati kabi masalalar sodda va ixcham tarzda bayon qilinadi. “Temur tuzuklari”ning ikkinchi kitobida Sohibqironning avlodlari davlat boshqaruvi sir-sinoatlari, hukmdorning har qanday vaziyatda ham muhim qarorlar qabul qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, bu borada kimlarga tayanish, vazir va sarkardalarni qanday usullar bilan tanlash, ularning burch va majburiyatlari, qo‘shinning tuzilishi va harbiy holat davrida harakatlanish turlari-qoidalari, oddiy askar vazifalari va ularga to‘lanadigan maosh, amirlar, vazirlar hamda boshqalarning davlat va hukmdor oldida ko‘rsatgan xizmatlarini munosib taqdirlash tuzugi kabi masalalar haqida so‘z yuritiladi.

— **Asarning ommalashuvi qanday kechgan va qaysi mamlakatlarda kimlar tomonidan nashr etilgan?**

— Abu Tolib al-Husayniy at-Turbiyatiy “Temur tuzuklari”ning asl turkiy nusxasi, yuqorida ta’kidlanganidek, Yamandagi Ja‘far posho kutubxonasida saqlangani va 1610-yilda uning ijzati bilan asarni turkiydan forschaga o‘g‘irganini qayd etgan. “Temur tuzuklari” asarining Abu Tolib Turbiyatiy tarjimasidagi forsiy matni ingliz ofitserlari tomonidan Angliyaga olib borilgan. Asar ingliz ofitseri, mayor Uilyam Devi va professor Jozef Uayt tomonidan forscha matni va inglizcha tarjimasi bilan 1783-yilda Buyuk Britaniyada chop etiladi.

Asarning mazkur nashri turli mamlakatlarga tarqaldi va jahonning ko‘plab shaharlarida, xususan, Kalkutta, Tehron, Bombeyda nashr qilindi. Mustaqillikdan avvalgi davrlarda va istiqlol yillarida O‘zbekistonda chop etilgan “Temur tuzuklari”ning o‘nlab nashrlari ham mazkur Oksford forsiy matniga asoslangan.

1787-yilda mayor Uayt va Devi nashr etgan forscha matn asosida L.Langle tomonidan asarning fransuzcha tarjimasi Parijda bosmadan chiqdi.

1892-yilda esa N.P.Ostroumov boshchiligidagi Toshkent gimnaziyasi talabarlari tomonidan asarning fransuzcha nashri asosida rus tiliga tarjimasi ham amalga oshirildi.

XX asrning 60-yillarida Alixonto‘ra Sog‘uniy asarning Devi va Uayt nashri asosida chiqarilgan toshbosma va nashrlardan biri asosida “Tuzuki Temuriy”ni o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilgan. 1989-yilda esa mazkur nashrni Bombay nashriyati forscha matniga solishtirgan holda o‘zbek tiliga to‘liq tarjima sharhshunos olim Habibulla Karomatov tomonidan ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi.

Bugungi kunda “Temur tuzuklari” asarini dunyoning qator e’tiborli kutubxonalarida, jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Finlyandiya, Daniya, Hindiston, Eron, Turkiya, Misr va Yaman qo‘lyozma xazinalarida uchirish mumkin. U qimmatli va nodir asar sifatida jahonning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Olimlar, tarixchi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda.

— **Bugungi avlod nima uchun “Temur tuzuklari”ni o‘qishi kerak?**

— Bu to‘g‘rida uzoq va keng fikr bildirish mumkin. Ammo bir-ikki misollar bilan cheklanaman. Ushbu kitob milliy davlatchiligimizning noyob namunasi.

Asardagi har bir so‘z, jumladan, o‘n ikki tuzuk, o‘n ikki qoida, o‘n ikki toifa haqidagi so‘zlar, vazirlar, amir va beklar, qo‘shin boshliqlari, sipohlar, moliya ishlari bo‘yicha xodimlar, soliqchilar va boshqa soha vakillarini tanlash, taqdirlash, ular bilan muomala qilish tuzuklari bugungi yoshlarning ish yuritish sa’y-harakatlarida muhim qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Shu o‘rinda asarda zikr etib o‘tilgan o‘n ikki toifa haqidagi qaydlardan misollar keltirib o‘tishni joiz topdik.

Birinchi toifa — sayyidlar, ulamo, shayxlar va fozilarni o‘zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlislarimni bezab turardi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o‘rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirardi.

Ikkinchi toifa — aqlli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor, qat‘iyatli arboblardan, keyinini o‘ylab, olisni ko‘rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilarni xos majlisimga kiritib, ularning subhatlaridan, ishlardan naf olib, tajribalar hosil qildirdim.

Uchinchi toifa — duogo‘y kishilarni qadrladim. Xilvatda ulardan duolar tilab, istaklarimning bajo etilishini o‘tinib so‘rardim. Majlislarda, yig‘inlar, bazmlar va jang maydonlarida ulardan ko‘p barakolar topdim.

To‘rtinchi toifa — amirlar, sarhanglar, sipohsolorlarga majlisimdan o‘rin berib, martabalarini yuqori ko‘tardim. Ular bilan subhatlashib, maslahatlar oldim.

Beshinchi toifa — sipoh va raiyat bo‘lib, har ikkisiga bir ko‘z bilan qaradim. Sipohiyulardan chiqqan bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxrli o‘tug‘, kamar va o‘qdon taqdim etib, martabalarini ko‘tardim.

Oldinchi toifa — ishonchli, to‘g‘ri e’tiqodli oqil-xiradmand kishilarkim, davlat sirlarini ularga ochib, saltanat ishlari bo‘yicha ulardan maslahat olishimga loyiq edilar. Bu toifa kishilar bilan sirdoshlik qilib, o‘z maxfiy ishlarim va pinhoni sir-asrorimni o‘shalgarga topshirdim.

Yettinchi toifa — vazirlar, devon kotiblari va munshiyarlarkim, saltanatim saroyini shular bilan bezatdim. Bulami menga tobe mamlakatlarni ko‘rsatuvchi ko‘zgu deb bildim.

Sakkizinchi toifa — hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarkim, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o‘z atrofimga o‘pladim. Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim. Munajjimlardan sayyoralarining qutlug‘-qutsiz kunlari, ularning harakati va osmonda aylanishini aniqlab oldirdim. Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar barpo etib, bog‘u bo‘stonlarning tarhini chizdirardim.

To‘qqizinchi toifa — muhaddislar, (payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari) haqida rivoyatlar naql qiluvchilar hamda qissaxonlar bo‘lib, ularni ham o‘zimga yaqinlashtirdim.

O‘ninch toifa — mashoyixlar, so‘fiylar, (Xudoni tanigan) oriflardir. Ularning xizmatlarida bo‘lib, subhatlar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan Tangri taoloning so‘zlarini eshitib, karomatlar ko‘rdim, mo‘jizalarini mushohada etdim va subhatlaridan rohatlanib, huzur qildim.

O‘n birinchi toifa — kasb-u hunar egalardir: bularning har toifa va sinfdan bo‘lganlarini davlatxonamga olib kelib, o‘z o‘rdamdan o‘rin belgiladimki, safarda-yu turg‘unlikda sipohimga kerak yaroqlar hamda boshqa jihozlarini hozirladilar.

O‘n ikkinchi toifa — har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu musofirlarining boshini siladim, ular turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar.

Sohibqiron Amir Temurning mamlakatni boshqarishda amal qilgan o‘n ikki tuzuki, davlat ishlariga jalb etilgan o‘n ikkita toifa va boshqa tuzuk tamoyillari bilan sizni qayta tanishtirishdan maqsadimiz ularning har biri bugungi kunimiz uchun ham benihoya muhim qo‘llanma ekanini anglatishdir. Chindan ham biz qadrlaydigan, e‘zozlaydigan abadiy meros — Sohibqiron Amir Temurdan qolgan ko‘rsatmalar — tuzuklar adolat bilan ish yuritishimizda, bag‘rikenglikni ulug‘lab, dunyoda do‘stlikni sharaflab, tinchlik va taraqqiyot uchun xizmat qilishimizda, ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama bilimli, mard, jasur, vatanparvar, xalqparvar, yangi tashabbus va g‘oyalarni ilgari suruvchi komil hamda barkamol shaxs sifatida tarbiyalashimizda muhim dasturulam bo‘lib xizmat qilishiga shubha yo‘q.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Asliddin ABDURAZZOQOV
subhatlashdi.



meros, xususan, “Temur tuzuklari” asari hamon jahon ahlini hayratga solib kelmoqda”.

— **“Temur tuzuklari”ning hayotiy ahamiyati va mohiyatini qanday tushunmog‘imiz kerak? Harbiy qo‘llanmani, ijtimoiy-iqtisodiy yoxud siyosiy asarni?**

— Mazkur savolni juda ko‘p takrorlashadi. Gap shundaki, “Temur tuzuklari”ga qiziqish bugungi kunda ham tobora ortib bormoqda. Joriy yilda Sohibqiron Amir Temur tavalludining

Mo‘g‘uliston hukmdori Tug‘luq Temurxonaga Movarounnahrda so‘nggi voqealar, ya‘ni mahalliy aholining hokimiyatga intilib, joylarda vujudga kelayotgan xalq harakatlari tinchlik bermay qo‘ygand. Tug‘luq Temurxon Chig‘atoy naslidan Duvaxonning nabirasi bo‘lib, Movarounnahr — Chig‘atoy ulusini o‘z tasarrufiga kiritishni rejalashtirgand. O‘sha paytda o‘lkada kechayotgan siyosiy jarayonlar uning rejalarni amalga oshirishi uchun turki

Mo‘g‘uliston hukmdori Tug‘luq Temurxonaga Movarounnahrda so‘nggi voqealar, ya‘ni mahalliy aholining hokimiyatga intilib, joylarda vujudga kelayotgan xalq harakatlari tinchlik bermay qo‘ygand. Tug‘luq Temurxon Chig‘atoy naslidan Duvaxonning nabirasi bo‘lib, Movarounnahr — Chig‘atoy ulusini o‘z tasarrufiga kiritishni rejalashtirgand. O‘sha paytda o‘lkada kechayotgan siyosiy jarayonlar uning rejalarni amalga oshirishi uchun turki

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646.
30166 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy